



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI DIREKTORINING BUYRUG'I

20 21 y. " 26 " oktabr

Nº 01-10/206

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tizimida Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturini tasdiqlash to'g'risida

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tizimida korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko'rish maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Yoshlar ishlari agentligi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi (O. Ravshanov) Agentlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, hududiy boshqarmalari boshliqlari hamda Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti (A.Jalilov) bilan birgalikda Dasturda belgilangan vazifalarni bajarilishini ta'minlash choralarini ko'rsin.
3. Mazkur buyruq prosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Direktor



A.Sa'dullayev

Yoshlar ishlari agentligi direktorining
2021-yil26-oktabrdagi 04-10/206-son buyrug‘iga
ILLOVA

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish DASTURI

I. Umumiy qoidalar

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) tizimida korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko‘rishga mas’ul bo‘lgan alohida bo‘linma tashkil etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bo‘yicha, Agentlik faoliyati haqida keng jamoatchilikka muhim axborotlar berish, Agentlik faoliyatining ochiqligini ta’minalash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar monitoringini olib borish maqsadida Jamoatchilik kengashi tuzildi, Agentlik xodimlarining mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha samarali tizim shakllandi.

Shu bilan birga, Agentlik tizimida barcha yo‘nalishlarda korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, chek qo‘yish, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmagan.

Shu munosabat bilan, korrupsiyaga qarshi kurashish va uning har qanday ko‘rinishlarini oldini olish bo‘yicha Agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturini (keyingi o‘rinlarda – Dastur) qabul qilish va amalga oshirish zaruriyatini taqozo etdi.

II. Dasturning asosiy maqsadi va vazifalari

1. Agentlik tizimida qonuniylikni ta’minalash, xodimlarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minalash hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish Dasturning asosiy maqsadidir.

2. Quyidagilar Agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Agentlik xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, tizimda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni

shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

korrupsiyani keltirib chiqaruvchi xavfni baholash va boshqarish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlashga, ularni oldini olishga va chek qo‘yishga, oqibatlarini, shuningdek ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta’minlash;

korrupsiyaning holati va tendensiyalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘ish hamda tahlil etish;

korrupsiyaga qarshi kurashishda Agentlik tarkibiy bo‘linmalarining faoliyatini muvofiqlashtirish va o‘zaro hamkorligini ta’minlash;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni ta’minlash;

korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash.

III. Dasturning asosiy yo‘nalishlari

1-bob. Agentlik tizimining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir tashkiliy chora-tadbirlar

3. Agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish kengashini tuzish. Uning vazifalari va vakolatlarini belgilash.

4. Agentlik tizimining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan o‘z mansab yoki xizmat majburiyatlarining bajarilishi samaradorligi mezonlarini va uning sifatini baholash tizimlarini joriy etish.

5. Agentlik tizimi xodimlarining faoliyatini jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan onlayn tartibda baholash tartibini joriy etish bo‘yicha takliflar tayyorlash.

6. Agentlik tizimi faoliyatida korrupsiya keltirib chiqarish xatarlari mavjud bo‘lgan sohalarni aniqlash maqsadida yoshlar o‘rtasida Agentlikning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanalida “Korrupsiyasiz kelajak” mavzusida ijtimoiy so‘rov o‘tkazish va so‘rov natijalarini tahlil qilib, uning omillarini bartaraf etish choralarini ko‘rish.

7. Agentlik tizimida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi xavfni aniqlash va boshqarish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

8. Agentlikning rasmiy saytida hamda ijtimoiy tarmoqlarda Agentlikdagi vakant ish o‘rinlari hamda nomzodlarga qo‘yilgan talablar haqida ma’lumotlar joylashtirib borilishini ta’minlash.

9. Agentlik xodimlarining attestatsiyadan o‘tkazilish jarayonida jamoatchilik vakillari ishtirokini, shuningdek, onlayn tarzda o‘tkazilishini joriy qilish orqali shaffoflikni ta’minlash.

10. Agentlik tizimiga xodimlarni qabul qilish bo‘yicha tanlov jarayonining real vaqt rejimida internetda onlayn translyatsiya qilinishini ta’minlash.

11. Agentlik tizimida ishlayotgan xodimlarni joy-joyiga qo‘yish bo‘yicha masalalarini qayta ko‘rib chiqish. Bunda uzoq vaqt davomida bitta lavozimda ishlab kelayotgan xodimlarni aniqlash va ularni boshqa lavozimlarga o‘tkazish bo‘yicha ichki rotatsiyani amalga oshirib borish bo‘yicha takliflar tayyorlash.

12. Agentlik tizimi xodimlarining ijtimoiy ahvolini o‘rganib borish tizimini joriy etish. Bunda kam ta’minlangan, nogironligi bo‘lgan va ko‘p bolali xodimlar ro‘yxatini shakllantirish, ularning holidan xabar olib turish hamda zaruriyatga ko‘ra, moddiy jihatdan ta’minlash choralarini ko‘rish.

13. Agentlik tizimida tovar-moddiy boyliklarning adolatli taqsimlanishini ta’minlash mexanizmlarini ishlab chiqish. Bunda xodimlarning ish hajmi va ehtiyojidan kelib chiqib, moddiy boyliklardan foydalanish tartibini belgilash.

14. Davlat xaridlari bo‘yicha har bir tovar pozitsiyasi kesimida xarid narxlarini tahlil qilib borish, narxlarni eng maqbul bo‘lishiga erishish.

15. Agentlik tizimida xodimlarga haq to‘lash va hisob-kitoblarning to‘g‘riligini monitoring qilish imkoniyatini yaratish, xodimlar uchun shikoyatlar berish imkoniyatini kengaytirish bo‘yicha takliflar tayyorlash.

16. Agentlik va uning tarkibiy bo‘linmalarining moliya-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlarni (davlat xaridlari bilan bog‘liq shartnomalar ro‘yxatini) tegishli rasmiy veb-saytlarda e’lon qilib borish.

17. Agentlik va uning tarkibiy tuzilmalarining asbob-uskunalar, sarflash materiallari va ehtiyyot qismlarga bo‘lgan ehtiyojini aniqlashning yagona mexanizmlari va standartlarini joriy etish, ularni hisobga olishning axborot tizimini yaratish bo‘yicha takliflar tayyorlash.

18. Agentlik tizimi faol xodimlarini rag‘batlantiruvchi mukofot joriy etish.

19. Agentlik tomonidan ko‘rsatiladigan davlat xizmatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan o‘tkazish va tahlil qilish. Bunda korrupsiyaviy bo‘shliqlari mavjud bo‘lgan normalarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

20. Agentlikning rasmiy veb-saytida «Korrupsiyaga qarshi kurashish» bo‘limini tashkil etish, unda ma’lumotlarni joylashtirish va uni muntazam yangilab borish.

21. Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosatini ishlab chiqish va qabul qilish.

22. Agentlik tizimida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi nizomni ishlab chiqish va qabul qilish.

23. Agentlikning aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamentini ishlab chiqish va qabul qilish.

24. Agentlik tizimi xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha Yo‘riqnomani ishlab chiqish va qabul qilish.

25. Agentlik tizimida kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnomani ishlab chiqish va qabul qilish.

26. Agentlik tizimiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnomani ishlab chiqish va qabul qilish.

27. Agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyotini ishlab chiqish va qabul qilish.

28. Agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizomni ishlab chiqish va qabul qilish.

29. Agentlik tizimida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha Reglamentni ishlab chiqish va qabul qilish.

30. Agentlik tarkibiy bo‘linmalari xodimlarining mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalarni kiritish.

2-bob. Agentlik tizimida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish va xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish

31. Agentlik tizimida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan, xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha axborot-tahliliy materiallarni tayyorlash va tarqatish.

32. Agentlik tarkibiy bo‘linmalari xodimlariga korrupsiyaning yoshlar kelajagi, jamiyat va mamlakat ravnaqi uchun o‘ta salbiy illat ekanligini targ‘ib qilishga qaratilgan o‘quv materiallari tayyorlash va tarqatish.

33. Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusi doirasida yoshlarga mo‘ljallangan ijtimoiy videorolik tayyorlash hamda korrupsiya, halollik, to‘g‘rilik, qonunga hurmat, adolat tantanasi mavzularida targ‘ibot materiallari tayyorlash.

34. Agentlik tizimida “Korrupsiyasiz hayot oyligi” tadbirlarini tashkil qilish.

3-bob. Korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish hamda imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash

35. Agentlikning rasmiy veb-saytida xodimlar ustidan shikoyat qilish imkonini beruvchi maxsus sahifa ochish, kelib tushgan shikoyatlarni muntazam tahlil qilish va natijalari bo‘yicha asoslantirilgan takliflar tayyorlash mexanizmini yo‘lga qo‘yish.

36. Agentlik tizimi ma'muriy binolarida jismoniy va yuridik shaxslar yoki ularning vakillarini qabul qilishda video va audioga yozib olish tizimini joriy etish orqali shikoyatlar kelib tushishini oldini olish bo'yicha takliflar tayyorlash.

37. Agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida korruptsianing holatini, uning jihatlarini, ko'larni, o'sish sur'atlarini hamda tendensiyalarini, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan choratadbirlarning samaradorligini Agentlik markaziy apparati, hududiy bo'linmalari va tizimga bo'ysunuvchi muassasalar kesimida o'rganish yuzasidan tadqiqotlar o'tkazish.

38. Agentlik tizimida mansabi yuqoriroq bo'lgan xodimning shaxsiy ishlarini amalga oshirishi uchun o'zidan pastroq lavozimda bo'lgan xodimga ko'rsatma bergenligi yuzasidan monitoring o'tkazish rejasini ishlab chiqish va natijasi bo'yicha tegishli mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish.

39. Agentlik tizimi xodimlari bilan har chorakda kamida bir marta Agentlik markaziy apparati va hududiy boshqarmalari tomonidan profilaktik suhbatdan o'tkazish tartibini joriy etish.

40. Agentlik tizimida maxfiyligini saqlagan holda real vaqt rejimidagi masofaviy markazlashtirilgan audio va videokuzatuv tizimini joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

41. Agentlik tizimi mansabdor shaxslari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid xatti-harakatlar haqida xabar bergen shaxslarni mukofotlash tartibini joriy etish.

42. Agentlik tizimi xodimlarining boshqa tashkilotlarda o'rganish o'tkazish jarayonlarida ishirok etishida odob-axloq qoidalarini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash. Bunda o'rganish o'tkazilayotgan tashkilot xodimlari bilan birga umumiy ovqatlanish joylariga borishni taqiqlashni nazarda tutish.

43. Xizmat safarlari bilan bog'liq xarajatlarni belgilangan tartibda qoplashning qat'iy mexanizmini belgilash. Bunda Agentlik tarkibiy bo'linmalariga kompleks tekshirish uchun yuborilgan xodimlarga xizmat safari xarajatlari uchun ajratiladigan mablag'larni ko'paytirish hamda yo'l xarajatlari va yashash uchun sarflagan mablag'larni faqatgina xodimga tegishli bo'lgan manbalar orqali to'langanligini tasdiqlovchi cheklar taqdim etilganda ushbu xarajatlarni qoplab berish tizimini joriy etish bo'yicha takliflar kiritish.

IV. Dasturning qabul qilinishidan kutilayotgan natijalar

44. Agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturini amalga oshirishdan quyidagi natijalar kutilmoqda:

Korrupsiyaga qarshi ichki nazoratni yo'lga qo'yish maqsadida Agentlikning ichki idoraviy normativ-huquqiy hujjatlari asosini shakllantirish;

Agentlik tizimida korrupsiya, manfaatlar to'qnashushi va boshqa huquqbazarliklarning oldi olinishi;

Agentlik va uning tarkibiy bo‘linmalari faoliyatining ochiqligiga erishilishi va zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosiga nisbatan xodimlar mas’uliyatining yanada ortishi;

Agentlik tizimi mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari faoliyati samaradorligi yangi mezonlar asosida baholanishi;

Agentlik tizimi xodimlarining kasbiy hamda xizmatdan tashqari faoliyatdagi odob-axloqining yuksalib borishi;

Agentlik tizimi faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning samaradorligini ta’minalash;

Agentlik tizimi faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minalash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida davlat organlari o‘rtasida ochiqliknin ta’minalash indeksi bo‘yicha yuqori o‘rinni egallash.